

“O‘zmetkombinat” AJ da 2025-yil I-chorak davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida Hisobot

Kombinatning Korrupsiyaga qarshi chora tadbirlar dasturi bajarilganligi to‘g‘risida umumiy axborot.

“O‘zmetkombinat” AJ da 2025-yil hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora–tadbirlar Dasturida belgilangan vazifalar doirasida tegishli tadbirlar amalga oshirildi.

Hisobot davrida 38 ta belgilangan tadbirlarning bajarilishi to‘liq amalga oshirilib, “O‘zmetkombinat” AJ da korrupsiyaviy holatlarni oldini olish maqsadida ishonch telefonlari va telegram bot kanali va sohada amalga oshirilayotgan ishlar rasmiy veb–saytning “Korrupsiyaga qarshi kurashish” bo‘yicha alohida sahifasida yoritib borilmoqda.

Kombinat Boshqaruv Raisi – Bosh direktor o‘rinbosari A.Sharipov, Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti direktori R.S.Atayev va Komplayens xizmati boshlig‘i T.T.Xojiyevning sohaga oid 8 ta maqolalari “Metallurg Minbari va “Za Metall” gazetalarida chop etilib, ushbu maqolalar asosida Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari xodimlarining mazkur sohadagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish uchun davra suhbatlari o‘tkazildi.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora tadbirlar Dasturiga muvofiq quyidagi ishlar amalga oshirildi.

“O‘zmetkombinat” AJ da korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Siyosat va tartib taomillar.

Hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mavjud ichki me‘yoriy hujjatlar va tartib qoidalarga tegishli o‘zgartirishlar kiritilib, Kuzatuv kengashining Odob axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasiga tahlil qilish va tasdiqlash uchun kiritildi:

“O‘zmetkombinat” AJ da, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma;

“O‘zmetkombinat” AJ, uning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnoma;

“O‘zmetkombinat” AJ, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom;

“O‘zmetkombinat” AJ, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizom;

“O‘zmetkombinat” AJ, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilngan barcha ichki me‘yoriy hujjatlar elektron shaklda axborot olish uchun Kombinatning rasmiy veb–saytida joylashtirilgan.

Shuni ta‘kidlash lozimki, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga doir 17 ta ortiq ichki me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, Kombinat ichki buyruqlari va Kuzatuv kengashi bayonnoma qarorlari bilan tasdiqlangan hamda xodimlar bilan tanishtirish ishlari olib borilmoqda.

“O‘zmetkombinat” AJ da korrupsiyaviy xavf–xatarlarni baholash va ushbu sohada o‘tkazilgan ichki audit natijalari.

Kombinatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularni oldini olish va chek qo‘yish, korrupsiya oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatga imkon beruvchi barcha sabablar va shart sharoitlarni bartaraf etish maqsadida joriy yilning mart ioyida Kombinat 7 direksiyasining 55 ta funktsiyasi faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlari korrupsiyaga qarshi auditdan o‘tkazildi. Audit jarayonida korrupsiyaga qarshi kurashishning ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadida Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari hamda markaziy apparatidagi barcha lavozimlar tahlil qilinib, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi

omillar asosida “O‘zmetkombinat” AJ ning xavf xatarlar xaritasi tuzildi. Kombinat korrupsiyaviy xavf xatarlar xaritasi hozirgi kunda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ekspertlar guruhi tomonidan tahlil qilinmoqda.

“O‘zmetkombinat” AJ tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari, markaziy apparatida manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

“O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom” talablari asosida korrupsiyaviy omillarni barvaqt oldini olish, ularni bartaraf etish maqsadida Kombinatning tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari, markaziy apparati xodimlari tomonidan yiliga bir marta manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyasini to‘ldirilishi belgilab qo‘yilgan. Ushbu Nizom talabini bajarish maqsadida 2025-yil hisobot davrida Kombinatning 8820 nafar xodimlari manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish deklaratsiyalarini to‘ldirishdi va barcha holatlar Kombinat Odob axloq Komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilib, tegishli xulosa va takliflar berilmoqda.

2025-yil 1-aprel holatiga to‘ldirilgan deklaratsiyalar Odob axloq komissiyasi tomonidan tahlil qilinganda, Kombinat 497 ta xodimlarning Kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallarida yaqin qarindoshlari faoliyat yuritib kelayotganliklari aniqlandi.

2025-yil yanvar oyidan Axborot texnologiyalari direktsiyasi tomonidan Kombinat barcha xodimlari uchun manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyalarini onlayn vaqt rejimida to‘ldirish tizimi ishga tushurildi.

“O‘zmetkombinat” AJ da xaridlarni tashkil etish jarayonida quyidagi tadbirlar amalga oshirilgan.

Hisobot davrida umumiy hisobda O‘zbekiston Respublikasining “Xaridlar to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabridagi PQ-3953-sonli qarori talablari asosida 756 ta shartnomalar rasmiylashtirilgan. Shulardan 219 tasi elektron do‘kon, 160 tasi kooperatsion portal, 151 tasi maxsus savdo maydonchalaridagi elektron birja savdolari, 37 tasi boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion, 62 tasi yagona yetkazib beruvchilar, 65 tasi to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari, 1 tasi tender, 61 tasi eng yaxshi takliflarni tanlash orqali amalga oshirilgan. Kombinat tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri yagona yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘shimcha shartlar kiritilmoqda.

Hisobot davrida “O‘zmetkombinat” AJ ning 386 ta amaldagi va potentsial kontragentlarining ishonchliligi va xalqaro, G‘arbiy va Yevropa Ittifoqi davlatlari sanksiyalariga muvofiqligi tekshirildi va ushbu tekshiruvlar yuzasidan 32 ta holatlar aniqlandi. Kontragentlarni lozim darajada tekshirish doirasida, belgilangan talablarga muvofiq kontragentlarning davlat byudjeti oldidagi qarzlar (*solliqlar, MIB oldidagi qarzlar*) mavjudligi, uning faoliyati (*ishlayotgan korxona yoki faoliyati to‘xtatilganligi*), manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi, uning ofshor zonalarida ishlashi, bankrotlik xavflari va boshqa xavflarga nisbatan tekshirildi.

Kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallarida ishga qabul qilish jarayoni qonunchilikka muvofiqligi va mehnat munosabatlarida amaldagi qonunchilik buzilish holatlari.

Mazkur yo‘nalishda korrupsiogen omillarni bartaraf etish maqsadida Kombinatda mavjud bo‘sh o‘rinlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar doimiy ravishda Kombinat rasmiy veb–sayti va ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy kanallarda berib borilmoqda. Hisobot davrida 26 ta lavozimga fuqarolarni ishga ochiq tanlov, ya’ni test va suhbat sinovlari orqali o‘tkazilgan hamda sinov tadbirlarini Internet tarmog‘i orqali real vaqt rejimida kuzatish ta’minlangan.

Shu bilan birga, “Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma” asosida 158 ta nomzod o‘rganilgan va tegishli xulosalar berilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tavsiyasi va ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi” Xalqaro standart talabi asosida xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurash talablari va bandlari kiritildi.

Mehnat munosabatlarida qonun buzilishi holatlarini aniqlash maqsadida hisobot davrida Kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallarida jami 9 xizmat tekshirivlari va 80 ta o‘rganish ishlari o‘tkazilgan, natijalari bo‘yicha tegishli xulosalar tayyorlangan va tegishli chora–tadbirlar ko‘rilgan.

Natijalar bo‘yicha quyidagilar amalga oshirildi:

- 41 nafar xodimga “xayfsan” berildi.

Kombinat xodimlarining aniqlangan noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan 1 ta material huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlariga yuborildi.

“O‘zmetkombinat” AJ, uning markaziy apparati tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi tartib taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish.

“O‘zmetkombinat” AJ da hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora tadbirlar Dasturiga muvofiq Kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallarida korrupsiyaga qarshi tartib taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish rejalashtirilgan.

Mazkur rejaga muvofiq Kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari bilan o‘zaro hamkorlik qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi chora tadbirlarni tahlil qilish hamda sohaga oid ichki me‘yoriy hujjatlarni tadbir etish maqsadida hisobot davrida “Energetika bo‘linmasi”, “Axborot texnologiyalari direksiyasi”, “Elektrda po‘lat eritish bo‘linmasi”, “Gaznachilik bo‘limi”, “Korporativ iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash bo‘limi”, “Kapital bozorlar bilan ishlash boshqarmasi”, “Idoraviy harbiylashtirilgan qorovullik” xizmatida monitoring o‘rganish tadbirlari o‘tkazildi. O‘tkazilgan tadbirlar natijalari bo‘yicha tegishli takliflar va tavsiyalar berilgan.

Hozirgi kunda ushbu o‘rganish ishlari davomida aniqlangan holatlarni bartaraf etish va keyingi davrlarda takrorlanmasligi uchun tegishli chora–tadbirlar belgilab olingan.

Xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik tamoyilini shakllantirish maqsadida o‘tkazilgan profilktik tadbirlar va mazkur sohada malaka oshirish bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

“O‘zmetkombinat” AJ da 2025-yil hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan ishlar chora tadbirlar Dasturiga muvofiq Kombinatning “Korrupsiyaga qarshi Siyosati”, “Odob axloq Kodeksi”, “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom” va “O‘zmetkombinat” AJ da sovg‘alar berish va qabul qilish, biznes mehmondo‘stlik va vakillik harajatlarini amalga oshirish bo‘yicha Siyosati” talablari asosida tushuntirish profilaktik tadbirlari o‘tkazildi.

Hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitishning natijalari markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida: o‘qitilgan xodimlarning foizdagi nisbati 5% ni tashkil etdi, ta‘lim shakli an‘anaviy, maxsus va umumiy yo‘nalishda seminar tadbirlar o‘tkazildi. Kombinat ishga qabul qilinayotgan barcha nomzodlar mustaqil ravishda an‘anaviy shaklda o‘qitildi.

2025-yilning hisobot davrida 3 ta umumiy oq‘itish seminarlari tashkil etilib, unda ijro apparatining, tarkibiy bo‘linma va hududiy filiallarning 128 nafar xodimi qatnashgan. Barcha tinglovchilarga axborot materiallari tarqatilgan.

2025-yil 26-mart kuni Ijroiya apparati majlislar zalida “O‘zmetkombinat” AJ Kombinat tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari va xodimlari orasida Korrupsiya, Manfaatlar to‘qnashuvi, Poraxo‘rlik muammosi va uni bartaraf etish yo‘llari, Odob axloq qoidalari, Kombinatning Jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish Siyosati talablari mavzularida Bekobod shahar IIB ta‘minlash bo‘limi boshlig‘i militsiya mayori X.A.Minikulov, Bekobod shahar prokurori o‘rinbosari A.T.Nurutdinov va Komplayens xizmati xodimlari ishtirokida seminar trening tashkil etildi.

Kuzatuv kengashi huzuridagi Komplayens xizmati boshlig'i T.T.Xojiyevning Kombinat rasmiy "Za Metall" gazetasida "Korrupsiya ugroza chestnomu trudu" nomli murojaatlarini "Ikkilamchiqorametallar" departamenti hududiy filiallari ishchi xodimlarini huquqiy ongini oshirish, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining har qanday ko'rinishiga murosasizlik madaniyatini shakllantirish maqsadida tanishtirish ishlari olib borildi.

Boshqaruv Raisining o'rinbosari Umumiy masalalar bo'yicha direktor A.Sharipovning kombinat rasmiy "Metallurg Minbari" gazetasida chop etilgan "Korrupsiyaga qarshi birga kurashamiz" nomli maqolasini "Ikkilamchiqorametallar" departamenti hududiy filiallari ishchi xodimlarini huquqiy ongini oshirish, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining har qanday ko'rinishiga murosasizlik madaniyatini shakllantirish maqsadida tanishtirish ishlari olib borildi.

Kuzatuv kengashi huzuridagi Komplayens xizmati boshlig'i T.T.Xojiyevning Kombinat rasmiy "Metallurg Minbari" gazetasida "Korrupsiya asr vabosi" nomli murojaatlarini "Ikkilamchiqorametallar" departamenti hududiy filiallari va tarkibiy bo'linmalar xodimlarini huquqiy ongini oshirish, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining har qanday ko'rinishiga murosasizlik madaniyatini shakllantirish maqsadida tanishtirish ishlari olib borildi.

Hisobot davrida Kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo'linmalari va hududiy filiallarida Xodimlarni huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hamda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan 36 ta (huquq tartibot organlari ishtirokida 2 marta) profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

Kombinat xodimlarida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining har qanday shakliga murosasiz madaniyatni shakllantirish maqsadida Komplayens xizmati tomonidan "Jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishga oid ma'lumotlar" va "Korporativ firibgarlikka qarshi kurashishga oid ma'lumotlar" o'quv qo'llanmalari ishlab chiqildi va Kombinat rasmiy veb-saytiga joylashtirildi.

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik sohasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Korrupsiyaqa qarshi kurashish sohasida sohasida 5 banner ko'rgazmali targ'ibot, 1 ta videorolik, 1 interv'yu va 6 ta audiorolik, 2 ta qo'llanma materiallari tayyorlandi va Kombinat rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy kanallarida e'lon qilinmoqda. Kombinatda korrupsiyaga oid qoidabuzarliklar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari to'g'risidagi ma'lumotlar haqida axborot materiallari tayyorlandi va Kombinat tarkibiy bo'linmalari va hududiy filiallariga kirish – chiqish, yig'ilishlar o'tkazish majlislar zallariga hamda Kombinat rasmiy veb-saytiga joylashtirildi.

Kombinat tarkibiy bo'linmalari va hududiy filiallari xodimlari huquqiy ongini oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida Kombinat rasmiy veb-sayti va Kombinatning ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy kanallari hamda OAV larida jami 36 ta huquqiy targ'ibot materiallari joylashtirildi.

Kombinat markaziy apparati, uning tarkibiy bo'linmalari va hududiy filiallarida aniqlangan korrupsiya holatlari uchun xabar berish uchun https://t.me/UMK_ANTICOR_BOT "Telegram-bot" kanali ishga tushirilgan. Mazkur telegram bot orqali korrupsion holat bo'yicha murojaat yuborish imkoniyati yaratilgan bo'lib, har bir yuborilgan murojaat ro'yxatga olinib, ushbu bot orqali murojaatchini xabardor qilib turish imkoniyati mavjud.

Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan Dasturda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasida har chorakda hisobot tayyorlanib, "E-anticor.uz" platformasi orqali Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga hamda To'g'-Kon Sanoati va Geologiya Vazirligiga yuborilmoqda.

Anonim So'rovnoma.

Kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo'linmlari, hududiy filiallari va Kombinat ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy telegram kanali kuzatuvchilari o'rtasida Anonim so'rovnoma o'tkazildi. Anonim so'rovnomada 1145dan ortiq ishtirokchi qatnashdi. So'rovnoma natijalari asosida

2025-yilga mo'ljallangan Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan dastur loyihasida belgilangan ishlarni yanada kuchaytirish va amalga tadbiq etish ishlari ko'rilmoqda. (Anonim so'rovnoma havolasi https://t.me/umk_matbuot_xiamti/24478)

Kombinatda manfaatlar to'qnashuvi, korruptsiya holatlari, tendensiyalari va sabablari, korruptsiyaga qarshi ko'rilgan choralar samaradorligi to'g'risida jamoatchilik fikrini o'rganish maqsadida o'tkazilgan anonim so'rovnoma Tahlillari ilova qilinadi.

“O'zmetkombinat” AJ da korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va chek qo'yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart sharoitlarini bartaraf etish maqsadida quyidagi vazifalar belgilab olindi.

Kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo'linmalari va hududiy filiallarida aniqlangan korruptsiogen omillarni inobatga olgan holda, ularning oldini olish va chek qo'yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart sharoitlarni bartaraf etish maqsadida takliflar berish:

- tizimli ravishda xodimlarning korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirib borish, shu jumladan xodimlarning korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tayyorlash va qayta tayyorlashga oid maxsus o'quv dasturlari, qo'llanmalar ishlab chiqilishini takomillashtirish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son qarori talablariga asosan, tashkilotning har bir funksiyasini korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash yuzasidan tahlil qilib borish, har bir funktsiya bo'yicha aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarlarning bartaraf etish bo'yicha choralarni ko'rib borilishi;

- manfaatlar to'qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan doimiy monitoring hamda ishga qabul qilinuvchi nomzodlar ustidan tekshiruvlar o'tkazilishini ta'minlash;

- korruptsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda muntazam ravishda monitoring o'tkazib borilishini hamda korruptsiyaga oid qonunchilik va ichki idoraviy talablarni buzgan xodimlarga nisbatan ta'sirchan choralar qo'llanilishini ta'minlash;

- Kombinatda korruptsiya holati, tendensiyalari va sabablari, korruptsiyaga qarshi ko'rilgan choralar samaradorligi to'g'risida jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha anonim so'rovnomalar o'tkazish;

- korruptsiyaga oid murojaatlarni adolatli ko'rib chiqilishini ta'minlash, mazkur sohada huquq tartibot idoralari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida IT-texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish orqali korruptsiya ko'rinishlarini barvaqt aniqlash maqsadida:

Sohaga ajratilgan mablag'larni samarali va maqsadli ishlatilishini nazorat qilish maqsadida 1C dasturiy ta'minoti orqali moliyaviy faoliyatni masofaviy monitoring tizimini (kameral nazorat) yo'lga qo'yish;

Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilinayotgan chora tadbirlar asosida aniqlangan holatlar asosida qo'shimcha tadbirlar ishlab chiqish.

Kuzatuv Kengashi huzuridagi
Komplayens - xizmati boshlig'i

T.T.Xojiyev